

XIX ASRDA USMONIYLARNI YANGI ISLOHOTLAR O'TKAZISH SABABLARI

Sultonov Muhiddin Nuriddin o'g'li

Toshkent tuman

1-son kasb-hunar maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Usmoniyalar imperiyasida yangi islohotlar o'tkazish qanchalik darajada o'rinni egallagani va oqibatlari haqida bayon etadi.

Kalit so'z. Usmoniyalar, Tanzimot, Yevropa, Ruminlar, Bolqon, Yunonlar, G'arb, Turk, Sharq, Islohot, Saltanat, Yosh turklar.

Ichki ziddiyatlar imperiyani parchalab yubormasligi uchun Usmoniyalar yangi islohotlar o'tkazdi. Ulardan biri 1870-yildagi Tanzimot islohoti hisoblanib, u mamlakatni isloh qilish va har bir fuqaroga teng huquq berishni ko'zda tutardi. Ammo endi juda kech bo'lgandi. Yevropaliklar va ayniqsa, Bolqondagi aholi Usmoniyalar hukmronligi ostida yashashdan charchagandi. Chunki G'arbiy Yevropaga solishtirganda ahvol nihoyatda og'ir, hududlar rivojlanmagandi. Juda ko'p isyonlardan keyin bu imperiya bilan yaxshi hayotga erishishga odamlar endi ishonmay qo'ygandi. Endi ularda kuchli millatchilik hissi uyg'ongan edi. Butun Bolqon yarimoroli turli etnik guruhlarga bo'linib ketgan va ularning har biri ozodlikka chiqishni xohlardi. Ozodlik kurashlarining ba'zilarini G'arbdagi kuchlar qo'llab-quvvatladi. 1821-yili ruminlar adolatsiz hokimiyatga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Yunonlar ham ozodlik uchun kurash boshladi va mustaqillikka erishdi. Siyosiy millatchilik tobora avj olib bordi. 1850-yildan keyin esa Serbiya, Bolgariya va Ruminiya to'liq mustaqillikka intila boshladi. 1859-yilda Ruminiya knyazliklari yagona shaxs qo'li ostida birlashdi. Qo'zg'olon Bosniya va Bolgariyada bo'lib o'tdi. Turk armiyasi qo'zg'oltonni bostirdi, unda 30 mingdan ortiq kishi halok bo'ldi. Bu esa xalqning g'azabini battar qo'zg'adi.

1877-yilda Rossiya Usmoniyalar imperiyasiga qarshi urush ochdi. Ruminiya Rossiya qo'shinlariga turklarga hujum qilish uchun o'z hududi orqali o'tishiga ruxsat berdi. Xuddi shu yili Ruminiya o'zini mustaqil davlat deb e'lon qildi hamda serblar va bolgarlar bilan birga turklarga qarshi urushda Rossiya tomonida turib qatnashdi. Ushbu mojaroden so'ng imperiya Ruminiya, Serbiya va Bolgariyaning bir qismida o'z ta'sirini yo'qotdi. Shuningdek, u Bosniya, Tunis va Kiprda ham nazoratni qo'ldan boy berdi. 1882-yildan keyin esa Misr Britaniya protektoratiga aylandi. Bunday

mag'lubiyatlardan so'ng imperiya mo'rtlashib qoldi. Ichki nizolar haliyam davom etardi. Imperiyani liberal va demokratik mamlakatga aylantirish uchun birinchi Konstitutsiya ishlab chiqildi, lekin u Sulton Abdulhamid II avtokratik rejimni o'rnatgach, bekor qilindi. Bu esa Yosh turklar inqilobini keltirib chiqardi. Inqilob sabab Usmoniyalar konstitutsiyasi tiklandi va bu ikki bosqichli saylov tizimidagi ko'p partiyaviylik siyosatining boshlanishi bo'ldi.

1911-yilda Italiya-Turkiya urushi boshlandi. Birinchi Bolqon urushi esa 1912-yilda bo'lib o'tdi. Mana shu ikki urushdan so'ng Usmoniyarning ba'zi hududlari Italiya, Chernogoriya, Serbiya, Yunoniston va Bolgariyaga o'tib ketdi. Ammo Bolgariya bu bilan qoniqmadni. Shuning uchun u Yunoniston va Serbiyaga hujum qildi. Ruminiya ham bu urushga qo'shildi. Turklar esa imkoniyatdan foydalanib, yo'qotgan yerlarining ba'zilarini qaytarib oldi. 1914-yilda Birinchi jahon urushi boshlandi. Usmoniyalar imperiyasi yana bir urushni boshdan kechirishiga to'g'ri keldi. Hududiy zaiflashishi oqibatida Yosh turklar Germaniya tomonda turib jang qildi. Chunki Germaniya ularga boy berilgan hududlarni yana qo'lga kiritishda, hech bo'limganda uni parchalanib ketmasligida yordam berishiga ishondi. Usmoniyalar Bolqon yarim orolida va O'rta Sharqda jang olib bordi. Saltanatda tartibsizliklar boshlandi. Germaniya rasmiylariga qarshi yashirin sulhlar tuzila boshlandi. Urush, shuningdek, Usmoniyalar imperiyasining arab xalqlari bilan munosabati uchun ham sinov bo'ldi. Mahalliy arablar orasida isyonlar kelib chiqsa boshladi. 1916-yilda Buyuk arab qo'zg'oloni boshlandi. Uni bostirish uchun endi imperiyaning qo'lidan hech narsa kelmasdi. Bunday qo'zg'olonlar 1918-yilda Damashqqacha yetib bordi va u yerda Britaniya qo'shinlari bilan birlashdi. Bu 400 yil davom etgan Usmoniyalar hokimiyatiga nuqta qo'ydi hamda arab dunyosi uchun katta g'alaba bo'ldi. To'rtlar ittifoqi urushda mag'lubiyatga uchragach Usmoniyalar uchun endi hammasi tugagandi. Sevr tinchlik shartnomasiga ko'ra, Usmoniyalar imperiyasi bekor qilindi va uning hududi to'rtdan uch qismga kamaydi. Shundan keyin mamlakatda turk milliy ozodlik harakatlari boshlandi.

Turkiya Buyuk Millat Majlisi 1922-yilda sultonlikni tugatish to'g'risida qaror qabul qildi. Sulton unvoni "istalmagan shaxs" sifatida e'lon qilindi. Bu yerlarda Usmoniyalar sulolasi 1299-yildan 1922-yilgacha hukmronlik qildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ravshan Jafarov "JAHON TARIXI" Toshkent 2015yil.
2. "Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi" o'quv qullanma Toshkent-2009
3. XIX asr Turkiya: iqtisodiy, ijtimoiy vaziyat. Sobrehistoria.com saytiga murojaat qildi.